

BO`LAJAK BOSHLANG`ICH TA`LIM O`QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING AHAMIYATI

Tursunova Nilufar Samiyevna

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markazi
“Maktabgacha, boshlang`ich va maxsus ta`lim metodikalar” kafedrasini o`qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantiirishda pedagogik amaliyotning afzallik va qulayliklari yoritilgan.

Kalit so`zlar: boshlang`ich ta`lim, bo`lajak o`qituvchi, qaror, burch, axloq, burch, majburiyat, amaliyot

Аннотация:

В данной статье описаны достоинства и преимущества педагогической практики в формировании профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: начальное образование, будущий учитель, решение, долг, этика, долг, обязательство, практика.

Abstract:

This article describes the advantages and advantages of pedagogical practice in shaping the professional training of future primary school teachers.

Key words: elementary education, future teacher, decision, duty, ethics, duty, commitment, practice

Bugungi kunda davlat va jamiyatning zamonaviy talablari nuqtai nazaridan o`qituvchi faoliyati nafaqat yuqori darajadagi professional kompitentlik bilan, balki axloq normalari, muomala madaniyati, bag`rikenglik va hamdardlik asosida, bo`lajak o`qituvchilarning o`quvchilar bilan munosabatda bo`lishga tayyorligi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ta`lim sifati va samaradorligini oshirish uchun bo`lajak o`qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish eng muhim masala sifatida qaralmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022-yildagi 289-sonli qaroriga muvofiq 2022-2023 o`quv yilidan boshlab pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta`lim muassasalari kunduzgi ta`lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o`quv

mashg'ulotlari "4+2" tartibida, ya'ni 4 kun oliy ta'lif muassasasida, 2 kun maktabgacha va umumiy o'rta ta'lif muassasalarida amaliyat olib borishini joriy qilish haqida keltirib o'tilgan. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda pedagogik amaliyotning ahamiyati katta bo'lib, amaliyat davomida talabalar pedagogik jamoa bilan muloqot qilishni, o'quvchilar bilan ishlashni o'rganishadi.

O'qituvchilik kasbi sharafli kasb bo'lishi bilan bir qatorda mas'uliyatli kasb ekanligini, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zimmasida boshqa o'qituvchilarga qaraganda ko'proq mas'uliyat yuklatilishini anglagan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratishimiz talab qilinadi. Yuqorida keltirilgan 289-sonli qarorga muvofiq tarzda pedagogik amaliyotni tashkil etishning bir qancha afzal jihatlarini ko'rib o'tishimiz mumkin:

Bo'lajak o'qituvchilar 4 kun davomida Oliy ta'lif muassasasida olgan bilimlarini, 2 kun amaliyotda qo'llab o'z tajribalarini ortirishlari mumkin.

Amaliyat o'tash muddatining ko'paytirilganligi talabalarda maktab muhiti bilan yaxshi tanishib, kasbiy xulq-atvor va burchlarini anglashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.. Pedagogik amaliyat davrida faol ishtirok etgan, ilmlvi va salohiyatli bo'lajak o'qituvchilarning kasbga bo'gan munosabatini shakllantirish bilan bir qatorda ish o'rni bilan ta'minlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik amaliyotning mazmuni. Pedagogik amaliyat bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning shunday bosqichiki, bunda har bir o'quvchiga ta'lif-tarbiya berishda oliy o'quv yurtida to'plagan bilim hamda o'quvlarining hammasidan kompleks tarzda foydalanishga to'g'ri keladi.

Shuning uchun pedagogik amaliyat vaqtida o'qish jarayonidagi barcha kamchiliklar yaqqol ochilib qoladi. Shunday qilib, pedagogik amaliyat o'ziga xos imtihon hisoblanadi.

Amaliyotchi-talabaning yoshi u rahbarlik qilishga to'g'ri keladigan o'quvchilar yoshidan juda kam farqlanadi. Bunday vaziyatda birinchi kundanoq to'g'ri yo'l tanlash, ya'ni o'quvchilar bilan munosabatga kirish usullsarini to`g'ri tanlash juda muhimdir. Tajribalarning ko'rsatishicha, amaliyotchi o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lsa, ya'ni ularga hayrixoxligi va kamtarligini namoyon qilsagina u tezda o'quvchilar bilan inoqlashib ketadi. O'quvchilar amaliyotchining ham o'quvchi (talaba) ekanligini yaxshi bilishadi va unga har tomonlama yordam berishga harakat qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. //Saylanma. - T.: O'qituvchi, 1997.
- 2.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005,
- 3.Новейший философский словарь// Под ред. Фролова И.Ф. – Р/на-Дону. – 2005.
- 4.Словарь по этике/ Под ред. И.Кона. – М., 1980.
- 5.Кертаева К.М. Ұстаз қызметіндегі педагогикалық деонтология. – Монография. Алматы: «Ғылым» ғылыми баспа орталығы, 2002.